



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BAHONING LINGVOKULTIROLOGIK TABIATI HAMDA INGLIZ VA O'ZBEK MILLIY BAHOLARINING SHAKLLANISHI

Isakova Zilolaxon Zokirovna
Qo'qon Universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada baho kategoriyasining lingvokulturologik tabiati hamda ingliz va o'zbek tillarida milliy baholarning shakllanish omillari tahlil qilinadi. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari misolida bahoning lingvokulturologik tabiatini o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarning til orqali qanday ifodalanishini yoritish har ikki xalqqa xos milliy yo bir millatning o'zigagina xos baholash usullari va konseptual qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi. Bunda baho va aksiologik baho o'rtasidagi farq aniqlanib, lingvokulturemalar milliy mentalitet va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi birlik sifatida talqin etiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi leksik, frazeologik, paremiologik va matn birliklari misolida tarixiy taraqqiyot, diniy manbalar, ijtimoiy an'analar va madaniy merosning baholash tizimiga ta'siri ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvokulturema, baho, aksiologik baho, milliy qadriyatlar, ingliz milliy bahoslari, o'zbek milliy baholari, milliy mentalitet, paremiologik birliklar, metafora va ramzlar.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ОЦЕНКИ И ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОЦЕНОК В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Исакова Зилолахон Зокировна
Кокандский университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье анализируется лингвокультурологическая природа категории оценки, а также факторы формирования национальных оценок в английском и узбекском языках. Изучение лингвокультурологической сущности оценки на материале английского и узбекского языков позволяет выявить особенности языкового выражения общечеловеческих ценностей, а также определить национально-специфические и сугубо этнические способы оценивания и концептуальные оппозиции, характерные для каждого народа. В работе проводится разграничение понятий «оценка» и «аксиологическая оценка», а лингвокультуремы интерпретируются как единицы, отражающие национальный менталитет и систему ценностей. На примере лексических, фразеологических, паремиологических и текстовых единиц английского и узбекского языков показано влияние исторического развития, религиозных источников, социальных традиций и культурного наследия на формирование оценочной системы.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурема, оценка, аксиологическая оценка, национальные ценности, английские национальные оценки, узбекские национальные оценки, национальный менталитет, паремиологические единицы, метафоры и символы.

THE LINGUOCULTURAL NATURE OF EVALUATION AND THE FORMATION OF NATIONAL EVALUATIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Isakova Zilolakhon Zokirovna

Kokand University, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article examines the linguocultural nature of the category of evaluation and analyzes the factors influencing the formation of national evaluative systems in the English and Uzbek languages. The study of evaluative meanings from a linguocultural perspective makes it possible to reveal how universal human values are expressed through language, as well as to identify nationally specific and ethnically distinctive evaluative strategies and conceptual oppositions characteristic of each linguistic culture. The distinction between evaluation and axiological evaluation is clarified, while linguoculturemes are interpreted as units reflecting national mentality and value systems. Based on lexical, phraseological, paremiological, and textual units in English and Uzbek, the influence of historical development, religious sources, social traditions, and cultural heritage on evaluative systems is demonstrated.

Keywords: linguoculturology, linguocultureme, evaluation, axiological evaluation, national values, English national evaluations, Uzbek national evaluations, national mentality, paremiological units, metaphors and symbols.

Globalashuv, madaniyatlararo muloqot jadallashgan hozirgi davrda til birliklari orqali ifodalanagan milliy qadriyatlar va baholash tizimlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi. Har bir xalq tili nafaqat kommunikativ vosita, balki ajdodlar tajribasi, tarixiy xotirasi va aksiologik qarashlarini saqlovchi madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan lingvokulturologiya til va madaniyat munosabatini integrallashgan tarzda tadqiq etib, milliy ong va milliy baholash tizimining til birliklarida qanday aks etishini tahlil qilishga qaratilgan fan sohasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiyada til birliklari "lingvokulturema" sifatida talqin qilinib, ular orqali ma'lum bir xalqning mentaliteti, urf-odatlar, diniy-tasavvurlari va milliy baholari tadqiq qilinadi. Ayniqsa, baho kategoriyasining lingvokulturologik tabiati, ya'ni shaxsiy (individual) baho va milliy-aksiologik baho o'rtasidagi farqni aniqlash, ularning tilda ifodalanish mexanizmlarini tahlil qilish masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Baho – bu hayotiy tajriba, bilim, jins, yosh, ijtimoiy mavqe kabi omillar ta'siri ostida shakllanadigan individual munosabat bo'lsa, aksiologik baho millat taraqqiyoti davomida shakllangan umumxalq qadriyatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari misolida bahoning lingvokulturologik tabiatini o'rganish, bir tomondan, umuminsiy qadriyatlarning til orqali qanday ifodalanishini ko'rsatishga, ikkinchi tomondan esa, har ikki xalqqa xos milliy-spetsifik baholash modellari va konseptual qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi.

Lingvokulturologiya, aslida, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, semiotika kabi yo'nalishlar tutashgan nuqtada hisoblanib, XX asrning ikkinchi yarmida, asosan 1980–1990-yillarda 4 ta Rossiya tilshunoslik maktablarida til va madaniyatni integrallashgan holda o'rganish orqali shakllandi. Dastlab Yu.S. Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.V. Vorobyov, V.M.Shaklein kabi olimlar bu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. G'arb tilshunosligida unga yaqin bo'lgan yo'nalishlar cultural linguistics, ethnolinguistics, intercultural communication kabi atamalar ostida rivojlandi. Masalan, amerikalik olim E. Sepir va B. Uorfning til va madaniyat o'rtasidagi munosabat haqidagi g'oyalari keyinchalik lingvokulturologik tadqiqotlarga asos bo'ldi.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik, etnologiya, psixologiya va umumiy tilshunoslik kabi sohalar tadqiqini o'z ichiga oluvchi yaxlit fan sohasi hisoblanadi.

Tilshunoslik uchun o'rganish obyekti bo'lgan an'anaviy til ushbu fan sohasida madaniyatni yaratish, rivojlantirish va saqlash vositasi sifatida tavsiflanadi. Demak, lingvokulturologiya madaniyatning til orqali qanday ifodalanishini va til orqali madaniyat, milliylikning avloddan-avlodga o'tishida qanday o'zgarishlar bo'lishi o'rganadi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyatni saqlovchi va qayta ishlab tarqatuvchi tizim sifatida qaraladi. Lingvokulturologiyaning predmeti lingvokulturemalar, ya'ni madaniyat mazmunini ifodalovchi til birliklaridir. "Madaniyatda majoziy, etalon, tasviriy-metaforik ma'nolarga ega bo'lgan va insonlar ongi natijalarini umumlashtiruvchi, ya'ni arxetipik va prototipik afsona, marosim, folklor va diniy diskurslar, she'riy va nasriy matnlar, frazeologizm va metaforalar, belgi va paremiyalar (maqol va matallar)ni umumlashtiruvchi til birliklari ushbu fan predmeti hisoblanadi".

Shuningdek, lingvokulturemalar so'zlar, iboralar, maqollar, metaforalar, ramzlar shaklida bo'lishi mumkin va ular milliy mentalitet, qadriyatlar, urf-odatlarini yoritib beradi. V.A. Maslova lingvokulturemani quyidagi turlarga bo'linishini ta'kidlaydi: 1) ekvivalentsiz leksika va lakunalar; 2) mifologik til birliklari, tilda o'rnatilgan qolgan arxetiplar, urf-odatlar, marosim va e'tiqodlar; 3) paremiologik til birliklari; 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, simvollar; 6) metafora va lisoniy obrazlar; 7) tillarning stilistik qatlami (adabiy va noadabiy shakllar); 8) nutqiy xulq; 9) nutq madaniyati.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Baho va lingvokulturologiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishdan oldin yana bir bora baho va qadr (aksiologik baho) o'rtasidagi farqni esga olishimiz lozim. Baho bu hayotiy tajriba, bilim, jins, yosh kabi tashqi omillar ta'siri ostida har bir shaxsda paydo bo'lgan shaxsiy fikrdir, aksiologik baho esa, millat taraqqiyoti davomida shakllangan milliylik, qadriyatlar tizimining bir qismi va qadriyatlar asosida shakllangan bahodir. Masalan, Jamaica Kincaid tomonidan yozilgan "Girl" hikoyasining boshidan oxirigacha asar qahramoni ona o'sha davr 1978 yillardagi Amerika jamiyatdagi ayolga qo'yilgan talablar va normalardan kelib chiqib mehribon ona emas, jamiyatning ayollarga bo'lgan shavqatsiz munosabatini ijrochisi sifatida qiziga mensimagan ohangda buyruqlar, qat'iy ko'rsatmalar beradi (this is how you smile to someone you don't like too much; this is how you smile to someone you don't like at all; this is how you smile to someone you like completely – siz yoqtirmaydigan odamingizga mana shunday tabassum qilasiz; umuman yoqtirmaydigan odamingizga esa shunday tabassum qilasiz; siz juda yoqtiradigan odamga shunday tabassum qilasiz; this is how to hem a dress when you see the hem coming down and so to prevent yourself from looking like the slut I know you are so bent on becoming – ko'ylakning etagi tushayotganini ko'rganingizda va o'zingizni odobsiz ayolga o'xshab qolmasligingiz uchun mana shunday qilish kerak, bilaman, siz doim shunaqa xato qilasiz; always eat your food in such a way that it won't turn someone else's stomach – ovqatingizni har doim boshqa birovning ishtahasini ochmaydigan tarzda yeng;) va hikoyada tasvirlangan kichik qizaloq ikki o'rinda ikki dona gap gapiradi va unda ham ona tomonidan uning javoblari inobatga olinmaydi. Hikoya mazmunidan o'sha davr ayolining jamiyatdagi o'rni qattiq belgilangani, nazorat qilinishi, onaning qiziga xizmatkorga qilingandek salbiy munosabati, ona ham tizim qurboni sifatida tasvirlanadi va jamiyatdagi ayollarga bo'lgan salbiy aksiologik baho mazmuni yaqqol ochib beradi (Jamaica Kincaid. Girl).

Shuningdek, baho mazmunini anglatgan leksik birliklarning hammasi ham lingvokulturema hisoblanmaydi, chunki ularning ayrimlari faqat baholash xususiyatiga ega hamda bu so'zlar odatda individning shaxsiy hissiy yoki aqliy munosabatini bildiradi, lekin ular ma'lum bir xalqning mentaliteti, tarixiy-madaniy tajribasi bilan bog'liq umumxalq konseptlarini aks ettirmaydi. Masalan, clever – aqlli, stupid – ahmoq kabi so'zlar milliylik aks

ettirmaydi, ammo baholash mazmuniga ega. As wise as an owl (nemis tilida: klug wie eine Eule) (boyqushdek dono), as dumb as a donkey (eshakdek ahmoq) kabi soʻz birikmalarida esa sof lingvokulturemalar hisoblanib, ingliz millatida boyqushning donishmandlik, eshshakni nodonlik ramzi sifatida aksiologik bahosini koʻrsatadi.

Eʼtiborli jihat shundaki, baholash jarayoni har ikki tushunchalarga ham tayanadi, yaʼni insonning fikrlash jarayonida uning shaxsiy bahosi yuzaga keladi, tabiiyki, shaxsiy baho milliylikdan, hususan, aksiologik bahoda holi emas. Demak, bahoning lingvokulturologik tabiatini oʻrganish aksiologik bahoni tadqiq qilishdir.

Lingvokulturemalar asosan leksik, paremiologik, onamastik birliklar, metafora va ramzlar, matn orqali ifodalanadi hamda biz baho mazmunini bildirgan lingvokulturemalarni tadqiqotimizda quyidagi guruhlariga boʻlib tadqiq qildik:

1. Soʻz – milliy-madaniy maʼnoga ega boʻlgan leksik birlik (sumalak, Thanksgiving, берёза).
2. Metafora – konseptual yoki badiiy koʻchma maʼnolar (oltin qoʻllar, time is money, широта души).
3. Ramzlar (simvollar) – millatni, madaniyatni ifodalovchi belgilar (ijobiy baholovchilar: oq rang – poklik, humo qushi – tinchlik, lotus – muqaddaslik).
4. Paremiologik birliklar – maqol, matal, idiomalar (non tuzini yemoq, break the ice, душа нараспашку).
5. Matn birliklari (janrlar) – afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, qoʻshiqlar, diniy matnlar orqali madaniyat ifodasi.
6. Antroponimlar – shaxs ismlari, familiyalar, taxalluslar (Alisher Navoiy, Shakespeare).
7. Toponimlar – joy va geografik nomlar (Venetsiya – goʻzallik, sanʼat shahri sifatida ijobiy baholanadi, Makka – musulmonlar uchun “muqaddas manzil” hisoblanib, ijobiy baho anglatadi. Quddus – muqaddas shahar hisoblanib, ijobiy baho anglatadi, lekin siyosiy kontekstdagi ishlatishda nizo markazi sifatida salbiy baholanadi.)

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, bahoning lingvokulturologik tabiati til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri jarayonida shakllanib, shaxsiy baho va aksiologik (milliy) baho oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Ingliz va oʻzbek tillaridagi lingvokulturemalar: leksik birliklar, metafora va ramzlar, paremiologik birliklar, matn janrlari va onomastik nomlar xalqning tarixiy xotirasi, diniy tasavvurlari, ijtimoiy anʼanalari va madaniy merosini umumlashtirgan baholovchi tizim sifatida namoyon boʻladi. Natijada bu birliklar orqali har bir millat uchun “yaxshi” va “yomon”, “ulugʻ” va “oddiy”, “halol” va “harom”, “oʻzimizniki” va “begona” kabi konseptual qarama-qarshiliklar kognitiv-madaniy darajada kodlanadi.

Ingliz milliy baholarida asosan pragmatizm, vaqtning qadrlash, shaxsiy erkinlik, qonun ustuvorligi va individual masʼuliyat ustuvor boʻlsa, oʻzbek milliy baholarida jamoaviylik, mehmondoʻstlik, maʼnaviy-axloqiy poklik, diniy qadriyatlarga sodiqlik va kattalarga hurmat yetakchi oʻrin tutadi. Bu farqlar har ikki tildagi ibora, maqol-matal, metafora va ramzlarda bevosita tilga olinib, baholashning madaniy mezonlarini shakllantiradi; shu bilan birga, mehnat, halollik, saxovat, jasorat, adolat kabi universal qadriyatlarda maʼlum darajadagi umumiylik ham kuzatiladi. Demak, bahoni lingvokulturologik yondashuv asosida tadqiq etish milliy tafakkur, mentalitet, qadriyatlar ierarxiyasini rekonstruksiya qilishga yordam beradigan muhim kognitiv-madaniy kalit boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Isakova Z.Z. Aksiologik bahoning falsafiy, mantiqiy va lisoniy kategoriya sifatida o'rganilishi // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2024 yil, 1-son. B. 372-379.
2. Shaklein V. M., Mikova S. S. Linguocultural Content of Language: monograph. – Moscow: 2015. – 176 p.
3. Арутюнова Н. Д. Культурные концепты. – Москва: 1991. – 212 б.
4. Воробьев В. В. Лингвокультурология (Теория и методы). – Москва: 1997. – 331 б.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Академия, 2001. – 208 б.
6. Сабитова З. К. Лингвокультурология: учебник. – Москва: ФЛИНТА, 2013. – 10 б.
7. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – Москва: 1997. – 824 б.
8. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 б.